

of flavors and traditions // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, Issue 6. – P. 111–115. DOI: 10.5281/zenodo.12533249.

2. Tasting traditions: Uzbekistan’s gastrotourism experience // Euronews. – 15.10.2024. – URL: <https://www.euronews.com> (murojaat sanasi: 13.05.2026).

3. UNWTO. Guidelines for the Development of Gastronomic Tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2019.

Bibisora SADIBEKOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, i.f.n.

XITOIDA TURIZM TARMOG‘INING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola XXR turizm tarmog‘ining zamonaviy holati va uning rivojlanishi tendensiyasiga bag‘ishlanib, unda koronavirus pandemiyasidan keying davrida yuzaga kelgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, Xitoyning ichki va tashqi turizm bozorini zamonaviy holari, uning mamlakat YaIMtidagi ulushi, XXR ning O‘zbekiston bilan mazkur sohada hamkorlik istiqbollari hamda sohaning asosiy rivojlanish tendensiyalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya va AI, “Silver-haired” (keksalar) bozori, barqaror va eko-turizm ichki va tashqi turizm, kiruvchi (inbound) turizm, xalqaro turizm.

Аннотация. В статье рассматриваются современное состояние развитие туризма в КНР, его роль и доля в ВВП страны. Также в работе анализированы статистических данные по туризму, вопросы сотрудничество КНР и Узбекистана в сфере туризма и основные тенденции развития отрасли в целом.

Ключевые слова: цифровая трансформация и AI, рынок серебряного возраста, стабильный и экотуризм, внутренний и внешний туризм, въездной туризм, международный туризм.

Abstract. This article is dedicated to the current state and development trends of the PRC's tourism industry, analyzing the challenges that emerged in the post-pandemic period. It also highlights the modern status of China's domestic and international tourism markets, its share in the country's GDP, the prospects for cooperation between the PRC and Uzbekistan in this field, and the key development trends of the sector.

Keywords: digital Transformation and AI, the “Silver-Haired” (elderly) market, sustainable and eco-tourism, the coronavirus pandemic, domestic and international tourism, inbound tourism, international tourism.

Hozirgi davrda iqtisodiyotning uchinchi sektoriga kiruvchi uning turizm sohasi jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xitoy turizm bozori ham pandemiyadan keyin to‘liq tiklanish bosqichini yakunlab, o‘shning yangi rekordlarini o‘rnatmoqda.

Xitoyning turizm bozoriga nazar soladigan bo‘lsak, uning ichki turizmidagi holati bo‘yicha 2024-yilda undagi ichki sayyohlar soni 5,6 milliarddan oshib, o‘tgan yilga nisbatan 14,8 foizga o‘sgan. 2025-yil oxiriga kelib, bu ko‘rsatkich 6,5 milliardga yetib, u mamlakatga 5,8 trillion yuan daromad keltirdi²³².

²³² [The Development of Digital Tourism in China \(2025\)](#)

Xitoyning mamlakatga kiruvchi (Inbound) turizmida uning Viza tartibining soddalashtirilishi natijasida 2024-yilda Xitoyga 131,9 million kishi tashrif buyurishdi. Xalqaro sayyohlar xarajatlari esa, 94,2 milliard dollarni tashkil etdi. Turizmni mamlakat YaIMga qo‘shgan hissasi 2025-yilda rekord darajadagi 13,7 trillion yuanga (taxminan 2,6 trillion dollar) yetdi²³³.

Agar, Xitoy turizmining asosiy ko‘rsatkichlariga murojaat qilsak, unda mazkur sohaning nafaqat tiklanganligini, balki 2025-yilda tarixiy rekordlarni yangilaganini quyidagi jadval 1.dan ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Xitoy turizm tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari (2024-2025)

Ko‘rsatkichlar	2024 (Fakt)	2025 /Fakt)	O‘sish (%)
Ichki turistik sayohatlar	5,61 mlrd.	6,52 mlrd	+16,2%
Ichki turizm daromadi	5,8 trln. yuan	6,3 trln yuan	+9,5%
Xorijga chiquvchi (Outbound) sayyohlar	130 mln.	167,9 mln	+29,1%
Kiruvchi (Inbound) sayyohlar	131,9 mln.	154,5 mln	+17,1%
Xalqaro sayyohlar xarajatlari	\$94,2 mlrd.	\$131,1 mlrd	+39,2%

Manba: “The evolution and new trends of China's tourism industry” (Yanyun Zhao, Bingjie Liu, 2020/2025) *Travel China Guide +1* asosida ishlab chiqildi.

Xitoyning turizm sohasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda Xitoy turizm bozorida hozirgi kunda quyidagi to‘rtta asosiy tendensiya hukmronlik qilayotganligini ko‘rish mumkin:

1. *Sifat va Shaxsiylashtirish (Experience over Sightseeing)*. Sayyohlar endi shunchaki diqqatga sazovor joylarni ko‘rish bilan cheklanmay, balki mahalliy hayotga sho‘ng‘ishni (masalan, "city roaming" yoki gastronomik turlar) afzal ko‘rishmoqda;

2. *Raqamli Transformatsiya va AI*. Sun‘iy intellekt (AI) asosidagi gidlar, immersiv shoular va super-ilovalar (WeChat, Trip.com) orqali bron qilish tizimlari sohaning 54 foizdan ortig‘ini egallagan;

3. *“Silver-Haired” (Keksalar) bozori*. Iqtisodiy faol pensionerlar soni ortishi bilan, 2025-yil oxiriga kelib ushbu segment 1 trillion yuandan ortiq xarajat qiladigan yirik bozorga aylanishi kutilmoqda;

4. *Barqaror va Eko-turizm*. Sog‘lomlashtirish reitrlari va ekologik toza dam olish maskanlari, ayniqsa Sichuan va Xaynan provinsiyalarida jadal rivojlanmoqda.

Xitoyning tashqi turizm va viza siyosati to‘g‘risida shuni ta’kidlash joizki, bu yo‘nalishda Xitoy hukumati 2024-2025-yillarda qariyb 50 ta davlat, jumladan, Frantsiya, Germaniya va Janubiy Koreya fuqarolari uchun bir tomonlama viza-free rejimini joriy qildi. Shuningdek, 2025-yilda Xitoydan xorijga chiquvchi sayyohlar soni 150 million nafarga yetdi, bunda Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyo (xususan, O‘zbekiston) ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda.

Xitoyning O‘zbekiston bilan hamkorlik holatiga e‘tibor qaratsak, unda O‘zbekiston Xitoy sayyohlik bozori uchun jozibador yo‘nalishga aylanligini ko‘rish mumkin. 2025-yilning dastlabki 9 oyida O‘zbekistonga 279 ming nafar xitoylik sayyoh kelgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan qariyb 2,9 barobar o‘sganligini ko‘rsatdi. Xitoyda 2024-yil “O‘zbekiston turizm yili” deb e‘lon qilingani va viza

²³³ "The evolution and new trends of China's tourism industry" (Yanyun Zhao, Bingjie Liu, 2020/2025) ma’lumotlari

rejimining bekor qilingani ushbu dinamikani bugungi kunda yanada kuchaytirdi.

O‘zbekistonga kirib kelayotgan xitoylik sayyohlar oqimiga nazar tashlasak, unda O‘zbekiston viza tartibining soddalashtirilishi va avia yo‘nalishlarning ko‘payishi natijasida xitoylik sayyohlar uchun “Top-yo‘nalish”ga aylanganligini guvohi bo‘lamiz va quyidagi raqamlarda uning isbotini topamiz: yani, 2023-yil: 42,470 nafar sayyoh; 2024-yil: 74,304 nafar sayyoh (o‘shish: +75%); 2025-yil: 200,000 dan ortiq sayyoh (2026-yil boshidagi ma’lumotlar oqimining 3,5 barobar o‘sganini ko‘rsatmoqda)²³⁴.

O‘zbekiston Xitoylik sayyohlarni jalb qilishda marketing strategiyalarini ishlab chiqmoqda va ular xitoylik zamonaviy sayyohlarni jalb qilish uchun an’anaviy usullar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Aynan shundan kelib chiqib, quyidagi strategiyalar tavsiya etilmoqda:

1. Raqamli ekotizim (Super-apps): Trip.com, WeChat va Alipay platformalarida O‘zbekiston turistik mahsulotlarini integratsiya qilish. Xitoyliklar uchun naqd pulsiz (QR-kod orqali) to‘lov tizimlarini kengaytirish;

2. Ijtimoiy tarmoqlar (Z-generatsiya): Douyin (TikTok'ning Xitoy versiyasi) va Xiaohongshu (Little Red Book) platformalarida "Travel-blogger"lar orqali O‘zbekistonning vizual jozibasini (Samarqand arxitekturasi, milliy taomlar) targ‘ib qilish;

3. Tematik turlar: “Ipak yo‘li merosi”, “Gastronomik turizm” va “Silver-Haired” (keksalar uchun qulay va xavfsiz) paketlarini ishlab chiqish;

4. Viza-Free rejimini targ‘ib qilish: Xitoy fuqarolari uchun joriy etilgan 30 kunlik viza-free rejimini yirik shaharlar (Pekin, Shanxay, Guanchjou) aeroportlarida keng reklama qilish istiqbollari belgilanmoqda.

O‘zbekistonda turizm sohasini, ayniqsa Xitoy bozoriga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 2024-2026-yillarda keng ko‘lamli davlat subsidiyalari, soliq imtiyozlari va investitsiya dasturlari amal qilmoqda. Quyida tadbirkorlar va investorlar uchun mavjud asosiy imkoniyatlar keltirilgan:

1. *Turizm loyihalari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar.* Davlat turizm infratuzilmasini yaxshilash va yangi xizmatlarni joriy qilish uchun mablag‘ ajratadi:

– mehmonxonalar uchun: 3, 4 va 5 yulduzli toifadagi mehmonxonalar qurgan investorlarga har bir xona uchun bir martalik subsidiya beriladi. Masalan, 5 yulduzli mehmonxonaning har bir xonasi uchun yillik taxminan 600 AQSH dollari miqdorida subsidiya ajratilishi ko‘zda tutilgan;

– turistik startaplar: Innovatsion biznes g‘oyalar va startap loyihalarni amalga oshirish uchun loyiha qiymatining 30 foizigacha (lekin 100 mln. so‘mdan oshmagan) grantlar ajratiladi. Ba’zi holatlarda bu miqdor 1 mlrd. so‘mgacha yetishi mumkin;

– media kontent: O‘zbekistonning tarixiy va afsonaviy shaxslari haqida film yoki serial suratga oluvchi xorijiy kinokompaniyalarga xarajatlarining bir qismi (Rebate tizimi orqali) qaytariladi.

2. *Soliq va bojxona imtiyozlari.* Investorlarning boshlang‘ich xarajatlarini kamaytirish uchun maxsus rejimlar mavjud:

– QQSdan ozod qilish: Turizm obyektlari uchun olib kelinadigan ma’lum

²³⁴ UN Tourism (sobiq UNWTO) Elibrary 2023-2026 yy.ma’lumotlari.

turdagi uskunalar va texnikalar qo‘shilgan qiymat solig‘idan (QQS) ozod qilingan;

– Soliq stavkalarini pasaytirish: Ustuvor turistik zonalar va yangi korxonalar uchun foyda va mol-mulk soliqlari bo‘yicha sezilarli chegirmalar amal qiladi.

3. *Xitoy investitsiyalari va hamkorlik loyihalari*. Xitoy O‘zbekistonning eng yirik investori bo‘lib, 2025-yilda xitoylik investorlar ishtirokida 519,5 million dollarlik 16 ta turizm loyihasi amalga oshirildi²³⁵:

– Loyiha yo‘nalishlari: Ushbu mablag‘lar mehmonxona biznesi, tematik parklar va qo‘shma turlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan;

– Transport aloqalari: 2025-yildan Air China, China Southern va China Eastern aviakompaniyalari muntazam reyslarni ko‘paytirdi, bu esa logistik xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

4. *Raqamli va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash sohasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda*:

– yagona turizm platformasi. 2026-yildan barcha xizmatlarni (bron qilish, transport, chiptalar) birlashtirgan yagona platforma ishga tushadi, bu esa tadbirkorlarga o‘z xizmatlarini xalqaro bozorga (shu jumladan, Xitoyga) olib chiqishda yordam beradi;

– targ‘ibot dasturlari. 2025-yil “O‘zbekiston turizm yili” deb e‘lon qilinishi doirasida xitoylik turoperatorlar bilan B2B muzokaralar va ko‘rgazmalar davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xitoyning turizm tarmog‘i hozirgi kunda shunchaki tiklanishdan, sifatli va yuqori texnologiyali o‘sish bosqichiga o‘tmoqda. Ichki bozorning kengayishi va “aqli turizm” texnologiyalarining joriy etilishi Xitoyni global turizm lokomotiviga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Артемова, Е.Н. Основы гостеприимства и туризма: учеб. пособие / Е.И. Козлова, Е.Н. Артемова. – Орел: ОрелГТУ, 2005. – 105 с.

2. ГУТ КНР. 5А цзи цзинцюй: [Туристические дестинации 5А]. URL: <http://www.cnta.gov.cn/was5/web/search?channelid=242887> (дата обращения: 05.02.2018) 397.

3. Дай Бинь: Си цзуншуцзи лунь люйю дэ лилунь нэйхань юй шидай ии.: [Дай Бинь: Генеральный секретарь Си обсуждает внутреннее содержание теории и современную роль туризма]. URL: <http://www.pinchain.com/article/128242> (дата обращения: 05.02.2018) 398.

4. [The Development of Digital Tourism in China \(2025\)](#).

5. The evolution and new trends of China's tourism industry

6. UN Tourism (sobiq UNWTO) Elibrary 2023-2026

²³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal ma‘lumotlari